



QUR'G'OQCHILIK BAG'RIDAGI HAYOT MANBAI: DEHQONOBOD SUV OMBORINING TARIXI, IQTISODIYOTI VA EKOLOGIK TRANSFORMATSIYASI

Almatov Dilbek Shokir o'g'li.

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogik va
ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix ta'lim yo'nalishi
3-bosqich 23-01- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20696986>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 13-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 15-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Dehqonobod, Qashqadaryo, suv ombori, rekonstruksiya, sug'orma dehqonchilik, ichimlik suvi, ekologik transformatsiya, suv tanqisligi, gidrotexnika inshootlari..

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanida joylashgan sel-suv omborining tarixi, texnik xususiyatlari, 2017–2023-yillardagi rekonstruksiya jarayoni, mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni va arid (quruq) iqlim sharoitidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida joylashgan bo'lib, iqlimi keskin kontinental, yog'in miqdori hududning geografik joylashuviga ko'ra 111 mm dan 277 mm gacha yetadi. Bunday sharoitda suv omborlari qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning bosh omilidir. Maqolada Dehqonobod suv omborining qurilish va ta'mirlash bosqichlari, davlat dasturidagi o'rni, ichimlik suvi loyihasi bilan integratsiyalashuvi, loyqa bosish muammolari va ekologik transformatsiya jarayonlari ochiq hamda rasmiy manbalar asosida batafsil yoritilgan.

O'rta Osiyo – bu jahondagi suv tanqisligi eng keskin kechayotgan mintaqalardan biri sanaladi. O'zbekiston uchun bu muammo o'ta dolzarbdir, chunki mamlakat suv resurslarining 80 foizi transshegara daryolarga (Amudaryo va Sirdaryo) hisobiga shakllanib, qo'shni davlatlar bilan bog'liqdir¹. Respublika ichkarisida hosil bo'ladigan suv zaxiralari bor-yo'g'i 20 foizni tashkil etadi¹. Shunday sharoitda sug'orish tizimida suvni tejash va undan oqilona milliy oziq-ovqat xafsizligining bosh garovidir.

Qashqadaryo viloyati janubiy O'zbekistonda joylashgan bo'lib, iqlimi keskin kontinental va quruqdir². Viloyatda yanvarning o'rtacha harorati $-0,6^{\circ}\text{C}$, iyulniki $+28,4^{\circ}\text{C}$ ga etadi². Yiliga o'rtacha 277 mm yog'in tushadi, bu mamlakatdagi eng quruq mintaqalardan biri ekanini ko'rsatadi². Sug'orishsiz dehqonchilik qilish bu yerda deyarli imkonsiz.

Dehqonobod tumani Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqida joylashgan bo'lib, yer maydonlari, asosan, elektr energiyasi nasoslari yordamida sug'oriladi³. Shu boisdan, tuman aholisini suv bilan ta'minlash va sug'orish maydonlarini kengaytirish hozirgi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi³. Ushbu maqolada Dehqonobod sel-suv omborining tarixiy rivojlanishi, texnik parametrlari, rekonstruksiya jarayoni va mintaqaviy ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Dehqonobod tumani Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqida joylashgan⁴. U shimoli-g'arbda G'uzor tumani, shimoli-sharqda Qamashi tumani, janubi-sharqda Surxondaryo viloyatining Boysun va Sariosiyo tumanlari, g'arbda esa Turkmanistonning Lebap viloyati bilan chegaradosh⁴. Tuman maydoni 4,0 ming km² ni tashkil etadi, aholi soni 2025-yilda 162,7 ming kishi bo'lgan⁴. Tumanning markazi – Qorashina shaharchasidir⁴.

Tumanning relyefi xilma-xil: Hisor tizmasining g'arbiy tarmoqlari – Bobosurxok va Qora sirt tog'lari, shuningdek tog' oldi qiya tekisliklari mavjud⁴. Tuman hududidan G'uzordaryoning irmoqlari – Katta O'radaryo va Kichik O'radaryo oqib o'tadi⁴. Tumanning janubi-g'arbiy qismida yozda qurib qoladigan Qizilcha va Gajaksoy kabi soylar ham mavjud⁴.

Dehqonobod tumani yer osti boyliklariga ega: neft, gaz, osh tuzi (Boybichakon, Govxona), kaliy tuzi (Odamtosh, Tapaqo'ton) va qurilish materiallari (ohaktosh, shag'al, gips) mavjud⁴. Tumanning eng yirik sanoat korxonasi Dehqonobod kaliy zavodidir⁴.

Tog'li qismda yupqa tog'-qo'ng'ir tuproq, tog' oldi va tekislik qismida esa och bo'z tuproq keng tarqalgan⁴. Sug'orma dehqonchilik – tuman iqtisodiyotining asosi bo'lib, markaziy Qorashina shaharcha va atrofdagi qishloqlardagi fermer xo'jaliklari hamda shaxsiy tomorqalar asosan sug'orish suviga muhtoj³.

Dehqonobod sel-suv ombori Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani "Nodira" MFY hududida joylashgan⁵. Suv ombori 1976–1982-yillarda qurib bitkazilgan⁵. Kichik O'ra daryosi o'zanida joylashgan bo'lib, 1982-yilda tabiiy ravishda tashkil topgan suv havzasi sifatida ham baholanadi⁵.

Suv ombori Kichik O'ra daryosidan suv quyilishi va sel suvlaridan yig'iladigan suvlar hisobiga to'lishga mo'ljallangan⁵. Asosiy inshootlarining majmui 1 tuproq to'g'oni beton qoplama bilan qoplangan⁵.

Suv ombori 2019–2023-yillarda rekonstruksiya qilingandan so'ng uning asosiy texnik ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi⁵:

Ko'rsatkich	Qiymat
O'rtacha chuqurligi	48,6 metr
Qirg'oq chizig'i uzunligi	1 505 metr
Umumiy hajmi	34,9 mln. m ³
Foydali ish hajmi	20,0 mln. m ³
Suv ta'minlash maydoni	1 600 gektar

Suv chiqish inshootining parametrlari⁵:
Teshiklar soni: 2 dona
Har bir teshikning balandligi: 2 m, eni: 2 m
Suv o'tkazish qobiliyati: 13,4 m³/s
Favqulodda suv chiqarish inshootining uzunligi 330,5 m, suv o'tkazish qobiliyati 315 m³/sni tashkil etadi⁵.

2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, suv to'g'onining uzunligi 850 metr, balandligi 36,2 metr bo'lib, suv ombori hududi 240 gektardan ortiq maydonni egallaydi⁶.

Dehqonobod suv omborini qayta qurish va uning balandligini 15 metrga ko'tarish davlat dasturiga kiritildi³. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 30-dekabrda qaroriga asosan,

ushbu suv omborining foydalanish hajmini oshirish ishlari 2017-yilgi manzilli dasturga kiritildi⁶. 2017-yil sentabr oyidan qurilish ishlari boshlandi³.

Suv omborining qayta qurilishi munosabati bilan tuman suv ombori idorasi qoshida katta anjuman o'tkazildi. Unda Respublika Bosh vaziri o'rinbosari, respublika qishloq va suv xo'jaligi vaziri Z.T.Mirzayev, viloyat hokimi Zafar Ro'ziyev, tuman hokimi Zoir Aliqulov va boshqalar nutq so'zladi³.

Tender savdolari o'tkazilib, g'olib deb topilgan "Yakkabog' qo'rg'oni" MChJ qurilish ishlarini bajarmoqda⁶. Qurilish rahbari sifatida Erkin To'xtayev tayinlangan³. Dehqonobod suv ombori boshlig'i Abdug'affor Usmonovning ma'lumotlariga ko'ra, yangi loyiha bo'yicha suv ombori 11,5 mln. m³ suv yig'ishga mo'ljallangan (dastlabki loyiha bo'yicha)³.

Rekonstruksiya ikki bosqichda amalga oshirildi⁶:

2017–2019-yillar: 22 milliard so'mlik qurilish-tiklash ishlari bajarildi;

2020–2022-yillar: 32 milliard so'mlik ishlar bajarildi.

Jami loyiha qiymati 54 milliard so'mni tashkil etdi⁶.

Suv ombori hududida quyidagi ishlar amalga oshirildi⁶:

Uzunligi 850 metr, balandligi 36,2 metr hajmdagi suv to'g'onini qurish va ta'mirlash;

Ko'prik barpo etish;

Boshqa yordamchi inshootlarni qurish ta'mirlash.

Rekonstruksiya tugallanganidan so'ng suv ombori 1 600 gektar yer maydonini suv bilan ta'minlashga mo'ljallangan⁵. Suv omboridan zaxira suvidan quyidagi hududlarga nasoslar orqali suv chiqariladi³:

Qorashina shaharchasi (Aerodrom, Beshbuloq, Yangiqishloq mahallalari)

Bibiqorasoch, Navobod va Gumbuloq qishloqlari

Suv ombori tuman markazi Qorashina shaharchasi hamda 12 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi aholi xonadonlarini suv bilan ta'minlaydi⁵.

Suv ombori ishga tushgandan so'ng quyidagi natijalarga erishiladi³:

Markaziy Qorashina va barcha tashkilotlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish yaxshilanadi;

Fermer xo'jaliklariga mo'l hosil olish uchun zamin yaratiladi;

Shaxsiy tomorqalarning unumdorligi oshiriladi;

Ekin maydonlari kengaytiriladi;

Aholi tomorqalarida sabzavot va bog'-rog' yetishtirish imkoniyati ortadi.

Ichimlik suv muammosi dehqonobodliklarni yillar davomida qiynab kelgan eng og'ir masalalardan biri bo'lib kelgan³. Loyiha amalga oshirilgunga qadar tuman aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi atigi 2 foizni tashkil etardi³.

Oqsuv–Dehqonobod yo'nalishdagi ichimlik suvi loyihasiga ko'ra³:

Suvning manbayi: Oqsuv daryosi

Quvur uzunligi: 77 km

Quvur diametri: 250–500 mm

Qamrab olinadigan aholi punktlari: 69 ta

Foydalanuvchi aholi: taxminan 100 ming nafar

Amudaryo-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi qoshidagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasining Dehqonobod uchaskasi "Suv oqova" tuman filiali

korxonasi rahbarlari (X.Kenjayeov, S.Allanazarov) bu loyihani amalga oshirish bo'yicha ish olib bormoqda³.

Loyiha amalga oshirilgach, boshqa suv manbalari bilan qo'shib hisoblaganda, tumanda aholi 98 foiz markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanishi rejalashtirilgan³. Bu ko'rsatkich suv ombori rekonstruksiya bilan birgalikda tumannin suv xavfsizligini tubdan yaxshilaydi.

O'rta Osiyo suv omborlarini nihoyatda tez loyqa bosishi mintaqaviy ilmiy muammo sifatida keng tan olingan⁷. Bu hodisa daryolardagi oqiziqqlarning to'g'on qurilgandan so'ng suv omboriga cho'kishi natijasida yuzaga keladi. Dehqonobod suv omborida ham loyqa bosish natijasida suv yig'ish hajmi kamayib qoldi, bu rekonstruksiyaning zarur qilgan asosiy sabablardan biridir³.

Mintaqadagi boshqa suv omborlari ham shu muammoga duch kelgan:

Qashqadaryodagi Chimqo'rg'on suv ombori 20 yil ichida 60 mln. m³ loyqa bilan to'lgan⁷;
G'uzordaryodagi Pachkamar suv ombori atigi 9 yil ichida 17 mln. m³ loyqa bilan to'ldi⁷.

Bu raqamlar mintaqadagi eroziya jarayonlarining naqadar keskinligini ko'rsatadi va Dehqonobod suv ombori rekonstruksiyasini o'z vaqtida amalga oshirishning zarurligini asoslaydi.

Qashqadaryo mintaqasida yillik o'rtacha bug'lanish 5,16 mm ni tashkil etadi, buning eng yuqori ko'rsatkichlari iyun-iyul oylarida kuzatiladi⁸. Yillik o'rtacha yog'in miqdori 111,4 mm ni tashkil etadi va yog'inlarning 80 foizi kuz-qish mavsumiga to'g'ri keladi⁸. Bunday iqlimda suv omborlari dehqonchilik uchun yagona ishonchli suv manbaiga aylanadi.

2025-yilda nashr etilgan ilmiy tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Qashqadaryo viloyatidagi Ayakchisoy daryosida 18 mln. m³ hajmli kichik suv ombori qurilsa, 26,5 ming gektarni sug'orish mumkin⁹. Bu esa mintaqaning iqlim o'zgarishiga chidamliligini oshirar edi. Tadqiqot kichik suv omborlarini qurishning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik foydalarini – qishloq xo'jaligi hosildorligining oshishi, bandlikning kengayishi va energiyatalab nasos stansiyalariga bog'liqlikning kamayishini ta'kidlaydi⁹.

O'zbekiston uchun suv resurslari masalasi faqat ichki boshqaruv bilan cheklanmaydi. Mamlakatning suv resurslarining 80 foizi qo'shni davlatlar bilan hamkorlik asosida tartibga solinishi zarur¹. Bu borada IFAS (Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi) va ICWC (O'rta Osiyo Suv Koordinatsiya Komissiyasi) kabi tashkilotlar faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda¹⁰.

Suv ombori rekonstruksiya natijasida Dehqonobod tumanida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kutilmoqda:

- 1 600 gektar yer sug'orish imkoniyatining yaratilishi;
- Markazlashgan ichimlik suvi bilan 98 foiz aholi ta'minlanishi;
- Tuman markazini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish;
- Fermer xo'jaliklari va shaxsiy tomorqalar unumdorligining oshishi.

O'zbekistonda sug'orish jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqargan, ularning eng dramatik natijasi Orol dengizining qurishi bo'ldi¹⁰. Sug'orish va suv o'tkazish inshootlari tufayli Qashqadaryo ham Amudaryo suv havzasiga eta olmay qolgan¹¹. Suv omborlari atrofidagi tuproqning sho'rlanishi va drenaj muammolari ham kuzatilishi mumkin.

Loyqa bosish muammosi oldini olish uchun o'rmon-melioratsiya tadbirlari, daryoning yuqori qismidagi eroziyaga qarshi ishlar ham zarur. Dehqonobod suv omborining rekonstruksiya bilan birga suv havzasini muhofaza qilish chora-tadbirlari ham amalga oshirilishi uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.

Xulosa

Dehqonobod sel-suv ombori 1976–1982-yillarda qurilgan bo'lib, yillar davomida loyqa bosishi va eskirishi tufayli qayta rekonstruktsiya zarurati tug'ildi. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 30-dekabrdagi qaroriga asosan boshlangan rekonstruktsiya jarayoni 2017–2022-yillar davomida jami 54 milliard so'm davlat mablag'i hisobiga amalga oshirildi. "Yakkabog' qo'rg'oni" MChJ tomonidan bajarilgan qurilish natijalari quyidagicha: Suv ombori maydoni: 248,6 gektar; Umumiy suv yig'ish hajmi: 34,9 mln. m³; Foydali ish hajmi: 20,0 mln. Sug'oriladigan yer maydoni: 1 600 gektar; Tuman markazi va 12 ta MFY aholisi suv bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, 77 km masofadagi Oqsuv daryosidan 250–500 mm diametrli quvurlar orqali olib kelinadigan ichimlik suvi loyihasi amalga oshirilgach, tuman aholisining 98 foizi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanadi. Bu Dehqonobod tumanida tarixiy ahamiyatga ega o'zgarish bo'lib, necha yillik xalq orzusining ro'yobga chiqishini anglatadi. Biroq mintaqaviy suv resurslari boshqaruvida uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun loyqa bosishga qarshi ekologik chora-tadbirlarni amalga oshirish, zamonaviy GIS texnologiyalariga asoslangan monitoring tizimlarini joriy etish va iqlim o'zgarishiga moslashgan suv xo'jaligi siyosatini shakllantirish zarur bo'lib qoladi.

Foydalanuvchi adabiyotlar:

- 1.Embassy of Uzbekistan in the United States. Uzbekistan Takes Bold Steps to Address Water Scarcity. 2024. <https://uzbekistan.org/uzbekistan-takes-bold-steps-to-address-water-scarcity/4551/>
- 2.Vikipediya (o'zbek tilida). Dehqonobod tumani. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dehqonobod_tumani [Kirish sanasi: 2026-yil 13-iyun]
3. [Muallif tomonidan taqdim etilgan birlamchi hujjat]: Dehqonobod suv ombori rejimlari va rekonstruktsiya jarayoniga bag'ishlangan maqola. Dehqonobod tumani hokimligi axborot xizmati. 2017–2021.
- 4.Vikipediya (o'zbek tilida). Dehqonobod tumani. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dehqonobod_tumani
- 5.[Muallif tomonidan taqdim etilgan birlamchi hujjat]: Dehqonobod sel-suv ombori texnik ma'lumotnomai. "Nodira" MFY, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani. 2023.
- 6.Kun.uz / Dehqonobod hokimligi axborot xizmati. "Dehqonobodda loyiha qiymati 54 mlrd so'm bo'lgan suv ombori qurilmoqda." 2021-yil 13-fevral. <https://kun.uz> [Kirish sanasi: 2026-yil 13-iyun]
- 7.UzSmart onlayn ensiklopediyasi. Suv ombori. <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/59817.html>; Vikipediya (o'zbek tilida). Suv ombori. https://uz.wikipedia.org/wiki/Suv_ombori
- 8.Yakhyoyev O. va boshq. "The importance of field research in efficient water use in Kashkadarya region." BIO Web of Conferences. 2025. https://www.bioconferences.org/articles/bioconf/abs/2025/02/bioconf_mblc2024_04021/bioconf_mblc2024_04021.html
9. Khasanov K., Bakiev M., Rasulov O., Babajanova N., Abdurahmanov I. "Addressing water scarcity in agriculture through small reservoir construction in Kashkadarya Province." Research in Agriculture and Engineering. 2025. <https://www.researchgate.net/publication/393370601>
10. FAO. Water Report 15 – Uzbekistan. <https://www.fao.org/4/w6240e/w6240e20.htm>

11. Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers (TIAME). Impact of agricultural development on water quality. 2022. <https://staff.tiame.uz/storage/users/597/articles/rTyZ9vjB8SX8x6YoJivmbDqPODunp05kNIeifXus.pdf>

